



ALEKSANDR XODZKO TARJIMASIDA MILLIYLIK VA ASLIYATNING SAQLANISHI (“Go‘ro‘g‘li va Parizodabegim” dostoni misolida)

Rahimabonu Sariyeva,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti talabasi.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1621>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 61

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

A.Xodzko, Go‘ro‘g‘li, Parizodabegim, milliy kolorit, badiiy asliyat, epos, tarjimashunoslik, lingvofolkloristika

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada Aleksandr Xodzkoning 1842-yilda Londonda nashr etilgan “Specimens of the Popular Poetry of Persia” to‘plamidagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida “Go‘ro‘g‘li va Parizodabegim” dostoni tanlangan bo‘lib, undagi milliy kolorit, etnografik realliklar va badiiy asliyatning ingliz tiliga transferi masalalari qiyosiy-tarixiy tamoyillar asosida o‘rganiladi. Maqolada tarjimonning turkiy epos tabiatini G‘arb kitobxoniga yetkazishdagi o‘ziga xos yondashuvlari va ekvivalentlik darajasi ilmiy asoslangan. Shuningdek, doston matnida uchraydigan folklor unsurlari, milliy urf-odatlar, obrazlar tizimi hamda poetik ifoda vositalarining ingliz tilidagi talqini tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ayrim realiyalar va madaniy birliklarning tarjimada semantik torayish, ma‘no kengayishi yoki qisman transformatsiyaga uchragani aniqlanadi. Muallif tomonidan Xodzko tarjimasining XIX asr Sharqshunoslik an‘analari doirasidagi o‘rni, uning Yevropa kitobxonida turkiy xalqlar og‘zaki ijodiga nisbatan qiziqish uyg‘otishdagi ahamiyati ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari badiiy tarjima nazariyasi, folklorshunoslik hamda qiyosiy adabiyotshunoslik yo‘nalishlarida muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 61

KEYWORDS

A.Chodzko, Koroghlu, Parizadabegim, national color, artistic authenticity, epic, translation studies, linguofolklore

ANNOTATION

This article analyzes the “Koroghlu” series included in Alexander Chodzko’s collection *Specimens of the Popular Poetry of Persia*, published in London in 1842. “Koroghlu and Parizadabegim” is selected as the object of research. Based on comparative-historical principles, the study explores the transfer of national color, ethnographic realities, and artistic authenticity into the English language. The article scientifically substantiates the translator’s unique approaches and the degree of equivalence in conveying the nature of the Turkic epic to a Western audience. Additionally, the article analyzes the interpretation in English of folkloric elements, national customs, the system of images, and poetic expressive devices found in the text of the epic. The study reveals that certain realia and cultural units underwent semantic narrowing, semantic expansion, or partial transformation in the process of translation. The author also highlights the place of Chodzko’s translation within the Orientalist traditions of the nineteenth century, as well as its significance in stimulating European readers’ interest in the oral heritage of Turkic peoples. The findings of the research may serve as an important scholarly source in the fields of literary translation theory, folklore studies, and comparative literary studies.

Kirish. Jahon folklorshunosligi va qiyosiy adabiyotshunoslik kontekstida “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar nafaqat turkiy xalqlar, balki butun Sharq epik tafakkurining monumental namunasi hisoblanadi. Ushbu eposning G‘arbiy Yevropa madaniy muhitiga kirib borishi va xalqaro miqyosda tanilishi bevosita polyak sharqshunosi va diplomati Aleksandr Xodzko (Alexander Chodzko) nomi bilan bog‘liq. Uning 1842-yilda Londonda nashr etilgan “Specimens of the Popular Poetry of Persia” [1.436] nomli fundamental asari Kavkaz, xususan ozarbayjon “Go‘ro‘g‘li” turkumini o‘z ichiga olgan birinchi mukammal inglizcha manba sifatida ilm-fan tarixidan mustahkam o‘rin egalladi.

Xodzkoning ushbu tarjimasini shunchaki lisoniy o‘girish emas, balki murakkab lingvomadaniy transfer jarayonidir. Zero, XIX asrning birinchi yarmida G‘arb kitobxoniga uchun “ta’sirli” (“ekzotik”) hisoblangan sharqona epik qahramon obrazini, uning o‘ziga xos dunyoqarashi va milliy tabiatini saqlagan holda tasvirlash yuksak addabiy mahorat talab etar edi.

Og‘zaki epik an‘anaga xos bo‘lgan badiiy yaxlitlik va milliy kolorit elementlarining begona madaniy-lingvistik makonda saqlanish darajasini aniqlash shubha izlanishlarning asosini tashkil etadi. Epos tarkibidagi lirik chekinishlar, an‘anaviy epitetlar, qahramonlarning ijtimoiy-axloqiy qiyofasi tarjima jarayonida ko‘pincha o‘zgarishlarga uchraydi. Ayniqsa, turkumning eng jozibador qismlaridan biri bo‘lgan “Go‘ro‘g‘li va Parizodabegim” dostoni misolida sharqona ishqi-y-sarguzasht motivlari va qahramonlik tushunchalarining qiyosiy tahlili tarjimashunoslikning o‘zak masalalaridan biri - asliyat muammosini keltirib chiqaradi.

A.Xodzko tomonidan amalga oshirilgan “Go‘ro‘g‘li va Parizodabegim” dostonining inglizcha tarjimasini filologik jihatdan o‘rganish undagi milliy koloritni ifodalovchi badiiy vositalar, etnotoponimlar va obrazlar tizimining asl matnga muvofiqligini baholash imkonini berishi shubhasiz. Tarjimonning Sharq va G‘arb badiiy tafakkurini muvofiqlashtirishdagi metodologik yondashuvlari tarjimaning original bo‘lishiga asos bo‘lgan.

Adabiyotlar tahlili. Xodzko merosi xalqaro sharqshunoslikda Hodi Zarifov [3.120], To‘ra Mirzayev, [4.240], Mehmed Tahmasib [6.3200 kabi olimlar tomonidan qisman o‘rganilgan bo‘lsa-da, aynan “Go‘ro‘g‘li va

Parizodabegim” dostonidagi milliy kolorit elementlarining badiiy-estetik tarjimasini bugungi kunning zamonaviy qiyosiy metodlari asosida qayta tahlilga muhtoj, desak xato bo‘lmaydi.

Biz V.M. Jirmunskiy [5.280] va H.T. Zarifovlarning epik an‘analari tipologiyasi haqidagi nazariyalariga tayangan holda A. Xodzko matni “Go‘ro‘g‘li” eposining Janubiy Kavkaz (ozarbayjon) va Markaziy Osiyo (o‘zbek) variantlari bilan o‘zaro qiyosiy o‘rganish dostonlarning syujet asoslarini yiritishda muhim rol o‘ynaydi. Syujet chiziqklarining invariantligi, obrazlar tizimidagi mushtaraklik va farqlar masalasi “Go‘ro‘g‘li va Parizodabegim” dostonidagi ishqi-y-qahramonlik motivlarining transformatsiyasi tahlilida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Folklor namunasi o‘ziga xos syujet tizimiga ega.

Milliy koloritni tashkil etuvchi moddiy madaniyat namunalari (masalan, *qalpoq, chopon, kamon, g‘iro*) va ijtimoiy-maishiy tushunchalarning ingliz tilidagi ekvivalentlaridan [2.265] foydalanilganligi tarjimaning o‘ziga xosligini oshirgan. Tarjimada joy nomlari va etnonimlarning (urug‘-aymoq nomlari) transliteratsiya yoki transformatsiya qilinish darajasi ma‘lum ma‘noda saqlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ma‘lumki, eposning asosiy janr xususiyatlaridan biri - nasr va nazmning almashinib kelishidir. A.Xodzkoning lirik qismlarni berish mahorati poetik obrazlilikni, xususan, sharq she‘riyatiga xos mublag‘a (giperbola), tashbeh (metafora) va epitetlarni inglizcha nasriy matnda qaydarajada saqlab qolganligini aniqlash imkonini beradi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot qiyosiy-tarixiy va qiyosiy-tipologik metodlar asosida olib borildi. “Go‘ro‘g‘li va Parizodabegim” dostonining A. Xodzko tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjimasini o‘zbek va ozarbayjon variantlari bilan qiyoslab tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida lingvopoetik, lingvokulturologik hamda tarjimashunoslik yondashuvlari qo‘llanildi. Milliy koloritni ifodalovchi birliklar (etnotoponimlar, unvonlar, realiyalar)ning berilishi transliteratsiya, kalkalash va ekvivalentlik darajalari nuqta nazaridan o‘rganildi. Shuningdek, matndagi badiiy vositalar: epitet, metafora, tashbehlarning tarjimada qayta yaratilish usullari tahlil qilindi. Tadqiqotda matnlararo tahlil, deskriptiv (tasviriy) va

interpretativ metodlardan foydalanilib, tarjimaning asliyatga moslik darajasi hamda tarjimon strategiyalari ilmiy asosda baholandi.

Natijalar. “Go‘ro‘g‘li va Parizodabegim” dostonidagi ayrim epizodlarning masalan, qahramonning safar oldi tayyorgarligi yoki go‘zal ayol ta‘rifining umumiy epik matndagi rolining tarjimada qayta yaratilishi tarjimon o‘z ishiga qanchalik mas‘uliyat bilan yondashganligini ko‘rsatib turadi.

“Go‘ro‘g‘li va Parizodabegim” dostonining Xodzko tarjimasida milliy ruhni saqlashning eng birlamchi usuli sifatida transliteratsiya va kalkalash usullari qo‘llanilgan. Tarjimon epik makon (toponim) va ijtimoiy ierarxiya (etnonim/unvon) birliklarini inglizcha muqobil bilan almashtirmay, ularning fonetik qatlamini saqlab qolgan. Matnda qahramonning qarorgohi “*Tchamly-bill*” (Chambilbeli) shaklida beriladi. Shuningdek, “*Xoy*”, “*Erzurum*” va “*Isfahan*” kabi real hududiy-geografik joylar dostonning tarixiy-geografik asosini belgilaydi. Xodzko Go‘ro‘g‘lining sodiq yigitlarini shunchaki “madmen” yoki “warriors” deb emas, balki “Dali” (Daliylar) atamasi bilan qoldiradi. Shuningdek, “*Pehlivan*” (Pahlavon), “*Khanum*” (Xonim), “*Begum*” (Begim) kabi unvonlar matnning antropologik asliyatini (anthropological authenticity) ta‘minlagan.

Matndan misol: “Kurrogrou, the son of the blind, lived in his fortress of Tchamly-bill with his seven hundred and seventy-seven Dalis.” [1.172].

Dostonning janriy tabiatiga xos bo‘lgan “nasr-nazm” almashinuvi Xodzko tomonidan jihatdan to‘g‘ri talqin qilingan. Garchi she‘riy parchalar inglizcha ritmik nasrga aylantirilgan bo‘lsa-da, ularning kirish (introductory) va yakunlovchi (closing) qismlari saqlangan [7.52]. Go‘ro‘g‘li va Parizodabegim aytishuvlarida sharqona lirikaga xos bo‘lgan “*O my soul!*” (Ey jonim!), “*Light of my eyes*” (Ko‘zimming nuri) kabi murojaatlar saqlangan. Har bir she‘riy qism “*Kurrogrou improvisation*” sarlavhasi ostida berilib, uning so‘ngida qahramonning taxallusi (nomi) keltiriladi. Bu og‘zaki ijrodagi “maqto‘v” yoki “taxallus-muhr” an‘anasining inglizcha matndagi aksidir.

Matndan misol (Parizodaning ta‘rif): “Your eyes are like two diamonds of Golconda... your eyebrows are like the arch of a Persian bow.” [1.185]. Bu yerda sharqona tashbehlarning (ko‘z-olmos, qosh-kamon) buzilmaganligi badiiy asliyatni saqlagan.

Parizodabegim obrazi tahlil qilinganda u go‘zal, o‘ziga ishongan, intellektual qahramon sifatida namoyon bo‘ladi. Go‘ro‘g‘li Parizodaning saroyiga kirganda, ular o‘rtasidagi muloqot sharqona “shart qo‘yish” va “sinash” an‘analari asosida davom ettirilganini ko‘rish mumkin. Parizodaning: “*If you are indeed Kurrogrou, show me your skill not with the sword, but with the Saaz (music)*” [1.190], degan talabi qahramonning nafaqat jismoniy, balki ma‘naviy-ruhiy jihatdan kuchliligini ham namoyon etadi.

Parizodabegimning kiyim-kechaklari shoyi, zarbof, dur-gavharlar misolida sharqona koloritini yaratuvchi sifatlashlar tasvirlangan “*She was dressed in robes of silk and brocade, glittering with gold embroidery and adorned with pearls and precious stones; her appearance displayed all the splendour of the East*” [1.195].

Aleksandr Xodzko tarjimasidagi milliy kolorit va badiiy asliyat masalasi zamonaviy folklorshunoslikda turli ilmiy talqinlarga sabab bo‘lib kelmoqda. Ayrim tadqiqotchilar XIX asr G‘arb tarjima maktabiga xos bo‘lgan “yevrotsentrik” yondashuvni ro‘kach qilib, Xodzkoni sharqona eposni Yevropa ritmik asarlaridek ya‘ni, “Go‘ro‘g‘li” dostonini xuddi ingliz ritmlari haqidagi afsonalarga o‘xshatib, milliy bo‘yoqlarini o‘chirib tashlashda ayblasa-da, qiyosiy tahlillar aksincha, u dostonidagi milliy so‘zlarni, sharqona o‘xshatishlarni va baxshiyona ruhni aslidek saqlab qolishga harakat qilganligini ko‘rsatadi [8.120].

Tadqiqot tahlillari shuni tasdiqlaydiki, tarjimon matn ustida ishlash jarayonida adaptatsiya usulidan voz kechib, asl matn saqlagan holda tarjima qilishga intigan. “Go‘ro‘g‘li va Parizodabegim” dostonida

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Chodzko A. (1842). Specimens of the Popular Poetry of Persia, as Found in the Adventures and Improvisations of Kurrogrou, the Bandit-minstrel of Northern Persia. London: Printed for the Oriental Translation Fund of Great Britain and Ireland.
2. Xodzko A. (1902). Эпосы и песни народов Персии. [V. A. Jukovskiy tarjimasini]. Санкт - Петербург -1902. Типография Императорской Академии Наук.
3. Zarifov H. T. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. Toshkent - 1970. Fan.
4. Mirzayev T. O‘zbek xalq qahramonlik eposi. Toshkent - 2004. Ma‘naviyat.

Go‘ro‘g‘lining lirik kechinmalari tasvirida sharqona poetik tafakkurga xos bo‘lgan an‘anaviy metaforalar: *kiprikning o‘qqa*, *qoshning kamonga* o‘xshatilishi o‘z mantig‘ini, semantik salmog‘ini yo‘qotmagan. Bu esa tarjimonning turkiy-forsiy badiiy tizimni, eposning metaforik qatlamini naqadar chuqur anglaganligini isbotlaydi.

Muhokama. Xodzkogacha bo‘lgan va undan keyingi ba‘zi tarjimalar bilan qiyoslaganda, 1842-yilgi nashr o‘zining xalqchil tili va baxshiyona ijro uslubini saqlab qolganligi bilan ajralib turadi. Tarjimon dostonning nafaqat syujetini, balki uning etnomadaniy muhitini ham ingliz tilida qayta yaratishga erishgan. Bu esa tarjimashunoslikdagi “dinamik ekvivalentlik” (dynamic equivalence) nazariyasining yorqin namunasi.

Aleksandr Xodzkoning 1842-yilda Londonda nashr etilgan “Specimens of the Popular Poetry of Persia” asari tarkibidagi “Go‘ro‘g‘li va Parizodabegim” dostoni tarjimasini tahlil qilish asosida shuni qayd qilish mumkinki, A.Xodzko tarjimada foreignization (asliyatni saqlash) strategiyasiga tayangan. Muallif “Chambill”, “Dali”, “Pahlavon”, “Begim” kabi toponimik va ijtimoiy-ierarxik birliklarni transliteratsiya usulida saqlab qolgan. Ingliz tilidagi matnning antropologik asliyatini va milliy-ekzotik bo‘yoq‘ini yo‘qotmasdan qayta yaratgan.

Dostonning janriy tabiatiga xos bo‘lgan nasr va nazm almashinuvi, shuningdek, baxshiyona ijrodagi an‘anaviy lirik chekinishlar tarjimada o‘zining mantig‘iy ma‘nodoshini topgan. Sharqona poetik tafakkurga xos bo‘lgan an‘anaviy o‘xshatishlar: *kiprik-o‘q*, *qosh-kamon* va murojaat shakllarining saqlanishi tarjimonning turkiy epos badiiy tizimini chuqur ifodalaganidan dalolat beradi.

“Go‘ro‘g‘li va Parizodabegim” dostonida ayol obrazi Yevropa dostonlaridagi kabi passiv personaj darajasiga tushirib qo‘yilmagan. Aksincha, Parizodabegimning go‘zal, vafoli, mard va jasurlik timsolida milliy etika me‘yorlariga mos qiyofasi saqlab qolingan. Bu esa Xodzko tarjimasining XIX asr G‘arb tarjimachiligiga xos bo‘lgan “yevrotsentrik” qoliplardan xoli ekanligini isbotlaydi.

Mazkur tarjima shunchaki axborot yetkazuvchi matn emas, balki Sharq va G‘arb o‘rtasidagi adabiyot va madaniyatlararo muloqotning mahsulidir. A.Xodzko turkiy xalqlar og‘zaki epik an‘anasini jahon adabiyoti kontekstiga olib kirish orqali, epos syujetini, uning milliy ruhini ham xalqaro kitobxonga yetkazishga muvaffaq bo‘lgan.

Xulosa. A. Xodzko tarjimasida “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarining xalqaro miqyosdagi nufuzini belgilashda poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Maqolada keltirilgan tahliliy natijalar kelgusida qiyosiy adabiyotshunoslik, folklorshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolarini tadqiq etishda nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Aleksandr Xodzkoning “Go‘ro‘g‘li va Parizodabegim” dostoni tarjimasida oddiy lingvistik o‘girish emas, balki murakkab lingvomadaniy transfer jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Tarjimon asliyatga sodiq qolish tamoyiliga amal qilgan holda milliy koloritni ifodalovchi etnotoponimlar, ijtimoiy unvonlar va badiiy obrazlarni transliteratsiya hamda qisman kalkalash orqali saqlab qolishga erishgan. Bu esa matnning antropologik va estetik yaxlitligini ta‘minlagan. Shuningdek, dostonning janriy xususiyati bo‘lgan nasr va nazm uyg‘unligi, baxshiyona ijro unsurlari hamda sharqona poetik tafakkurga xos tasvir vositalari tarjimada o‘ziga xos shaklda aks ettirilgan. Ayniqsa, an‘anaviy metaforalar, murojaat shakllari va epik formulalarning saqlanishi tarjimonning asliyat ruhini chuqur anglaganligini ko‘rsatadi. Qiyosiy tahlillar Xodzkoning tarjimada “foreignization” strategiyasiga ustuvor ahamiyat berganini, ya‘ni matn G‘arb o‘quvchisiga moslashtirishdan ko‘ra, uning milliy xususiyatlarini saqlab qolishga intilganini tasdiqlaydi. Natijada, ushbu tarjima Sharq epik merosini Yevropa madaniy makoniga olib kirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan.

5. Jirmunskiy V. M. Эпический фольклор узбеков и его взаимосвязи с фольклором народов востока. Москва -1967. Наука.
6. Tahmasib M. H. Azərbaycan xalq dastanları (orta esrlər). Bakı - 1972.
7. Sultonov I. (2018). “XIX asr G‘arb sharqshunosligida o‘zbek dostonlari talqini”. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2018, 3-son, 45–52-betlar.
8. Yusupov Sh.. “A. Xodzko tarjimalarida milliy realiyalarning berilishi”. Toshkent -2021. Filologiya masalalari, 2-son, 112–120-betlar.